



BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1-iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

26 754
118,1 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

25 181
116,8 %





Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020-yilda)

2 658
68,5 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladir.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladir.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyat ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)










Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyun oylarida 2 658 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 859 ta, xususiy korxonalar – 177 ta, oilaviy korxonalar – 528 ta, boshqalar - 94 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni****Mikrofirmalar****Kichik korxonalar****Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar****Oilaviy korxonalar****Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni****Xususiy korxonalar**

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,8** foizga oshdi*




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



18,6
foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




22,4
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




14,3
martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



*O'tgan yilga nisbatan **40,0** foizga oshdi*




Xususiy korxonalar




4,2
foizga oshdi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1-iyul holatiga ko'ra 2 439 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 944 taga yoki 163,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 244 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 816 taga yoki 157,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 528 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 106,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 301 tani tashkil etib, ulardan 291 tasi yoki 96,7 % qismi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 70 taga yoki 130,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Buxoro shahar	150	74	76
Kogon shahar	17	12	5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	7	1	6
Buxoro	12	9	3
Vobkent	7	6	1
G'ijduvon	11	6	5
Kogon	24	20	4
Qorako'l	8	3	5
Qorovulbozor	9	4	5
Peshku	16	5	11
Romitan	10	4	6
Jondor	11	7	4
Shofirkon	9	6	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 150 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 51,5 %), Kogon shahrida 17 ta (5,8 %), Kogon 24 ta (8,2 %), Peshku 16 ta (5,5 %), Buxoro 12 ta (4,1 %) va Jondor tumanlarida 11 tani (3,8 %) tashkil etadi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: 65 223-83-20